

FANLARARO ALOQADORLIK TALIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI

Xoshimova Laziza Akbar qizi,
Jizzax davlat pedagogika instituti
magistratura bo‘limi talabasi
Ilmiy raxbar **o‘qit. Abdukarimova E**

Annotatsiya:Ushbu maqolada, mumtoz musiqa mavzusidagi darslarni adabiyot va ona tili fani bilan o‘zaro aloqadorlikda tashkil etishdagi imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: musiqa, ona-tili, pedagogika, ta’lim sifati, etika, estetika.

Ma’lumki, insonning ma’naviy ongi, dunyoqarashi va ma’naviy kamolotining shakllanishida musiqa sana’ti o‘zining qudratli ta’sir kuchi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz I.Karimov o‘zining “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” asarida haqli ravishda ta’kidlaganlaridek “Bizning vatanimizda musiqaning sehrli kuchini his etmay yashayotgan kishini topish qiyin. Bugungi kunda, ayniqsa musiqa san’ati boshqa san’at turlariga nisbatan yoshlarning tarbiyasiga ko‘proq va kuchliroq ta’sir etmoqda”.

Haqiqatdan ham, musiqa insonning axloqiy va estetik hissiyotlariga kuchli va betakror ta’sir etish xususiyati bilan pedagogik fanlar tizimida muhim o‘rin tutadi. Shuning uchun ham musiqa ta’limida ushbu fanni o‘qitilishida eng avvalo tarbiyaviy maqsadlar bosh vazifa hisoblanadi.

Ta’limning barcha bo‘g‘inlarida fanlar bo‘yicha ishlab chiqilgan Davlat ta’lim standartlari talablari faqatgina yoshlarga chuqur bilim va tarbiya berishni emas, balki ertangi kun yaratuvchilari bo‘lmish yoshlarni ta’limning keyingi bosqichlariga tayyorlash vazifalarini ham ko‘zda tutadi. Bu esa, amaldagi ta’lim tizimining barcha bosqichlarida muhim didaktik ahamiyatga ega bo‘lgan o‘quv fanlarini bir-biri bilan

o‘zaro aloqador mexanizmlaridan o‘z o‘rnida va samarali foydalanish va shu orqali talim va tarbiya ishlarini takomillashtirib borishni taqozo etadi.

Ta’limning barcha bosqichlarida fanlarning integrasyalashuv jarayoni shuni ko‘rsatadiki, fanlarning o‘qitilishida ularni o‘zaro aloqadorlik xususiyatlaridan maqsadli foydalanish, darslarni pedagogik va metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil qilinishi, har bir fanni o‘qitilishini mazmunli va sifatli bo‘lishini kafolatlaydi.

Pedagogika fanlari tizimida fanlararo bog‘liqlik va aloqadorlikning didaktik ta’limdagi ahamiyati va fanlarni o‘zaro bog‘liqlik va aloqadorlikda tashkil etishning umumiy jihatlari ancha keng va ilmiy asosli yoritilgan bo‘lsada, aynan musiqa darslarini o‘zining tabiiy tizimli xususiyatlariga ko‘ra boshqa fanlar bilan aloqadorlikda tashkil etish amaliyoti va tajribasi yetarli darajada o‘rganilmagan. Shunga ko‘ra biz o‘zimizning pedagogik amaliyotimizda musiqa darslarini boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqadorlikda tashkil etishning ta’lim samaradorligini oshirishdagi imkoniyatlarini aniqlashga harakat qildik. Shu yo‘nalishda o‘tkazilgan darslardan biri ona-tili va adabiyot fani bilan bog‘liq ravishda tashkil etildi.

Bu o‘rinda mumtoz musiqa mavzusidagi darslarni adabiyot va ona tili fani bilan o‘zaro aloqadorlikda tashkil etishdagi keng imkoniyatlarga ega ekanligi e’tiborga olindi. O‘zbek mumtoz musiqasi mavzusidagi qo‘shiqlarni tinglash, o‘rganishda ularni asosan, mumtoz adabiyot vakillarining she’r, g‘azallariga bastalangan, yuksak ijod namunalari ekanligiga hamda she’riy matnda ko‘plab so‘zlarni hozirgi kunda iste’molda bo‘lmaganligi tufayli o‘quvchi-yoshlarni tushunmasligi, pirovardida asar g‘oyaviy-badiiy mazmunini to‘liq idrok etolmasliklari, she’riy matn mazmunini sharhlashda ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchilarning hamkorligi yaxshi samara beradi.

O'zbek qo'shiqchilik san'atida mashhur va ma'lum, juda ko'plab hofizlar, xonadamlar qatori havaskorlar tomonidan ham sevib kuylanib kelinayotgan Gulizorim asari umumta'lim maktablarining 6-sinf musiqa repertuariga tinglash uchun kiritilgan. Bu asar o'zbek bastakorlik ijodiyotining nodir namunalaridan bo'lib, uni mashhur san'atkor, hofiz, mumtoz va maqom ashula va kuylarning mohir ijrochisi Hoji Abdulaziz Abdurasulov hazrat Alisher Navoiy g'azaliga bastalagan. Biz mana shu qo'shiqni "musiqa tinglash" jarayonida o'quvchilarga eshittirish va bu asar haqida keng va atroflicha bilim, tushunchalar berish bilan uni mumtozlik xususiyatlarini to'laqonli idrok etishlariga erishish maqsadida darsga alohida tayyorgarlik ko'rdik. (albatta, ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari yordamidan foydalangan holda).

1. Alisher Navoiy ijodi, uning juda ko'plab g'azallari o'zbek milliy musiqasining eng nodir va bebaho ashulalari sifatida xalqimizning madaniy va ma'naviy xazinasidan munosib joy olib kelayotganligi haqida ma'lumotlar to'plandi. Munojot (Sarvi gulru kelmadi), Ushshoq (Qaro ko'zim), Shitob aylab, Koshki, Ko'cha bog'i, Ey sabo va hokazo).

2. Alisher Navoiyning adabiyotimiz rivojiga, tilimizning taraqqiyotiga qo'shgan bebaho xizmatlari haqida muhtasar suhbat matni tayyorlandi.

3. A. Mahmudovning "Hoji Abdulaziz Abdurasulov" nomli kitobidan bu buyuk hofiz va bastakorning hayoti va ijodiy faoliyatiga oid 3-4 daqiqaga mo'ljallangan ma'lumotlar olindi.

4. Bir o'quvchiga "Gulizorim" ashulasining g'azalini yod olish va ifodali o'qish topshirildi.

5. G'azal matnining g'oyaviy-badiiy mazmunini sharhlash uchun adabiyot o'qituvchisi taklif etildi.

Do'stlarim bir nozanin ishq bu hol etmish mani,

Zulfi savdosi bu yanglig' poymol etmish mani.

Lola gul ruhsori hajr, ashkimni ol etmish mani.
Bir pari paykar g‘ami oshufta hol etmish mani,
Elga ahvolim demakda gungu lol etmish mani,
Eygulizorim, rahmaylanigorim.

Ishqi yetkurmish meningdek telbani bu yerga kim,
Teshilur ko‘ksim malomat o‘qidin har yerdakim.
Yo‘q majolim o‘yla holimdin o‘zinga dergakim,
Men havoyini ne tong ko‘rguzsalar bir-birgakim.
Egma qoshi fikri andog‘ kim hilol etmish mani.
Eygulizorim, rahmaylanigorim.

Gohi majnun elga, gohi sog‘ ilan teng o‘lmisham,
Hasratingda, lola yanglig‘ dog‘ ila teng o‘lmisham,
Kim xazon faslidagi yaproq ilan teng o‘lmisham,
Yorni kuyi ichrakim tuproqilan teng o‘lmisham,
Ishqi savdosi bu yanglig‘ poymoletmishmani
Ey gulizorim, rahmaylanigorim.

6. G‘azal matnidagi “zulf”, “poymol”, “ruxsor”, “hajr”, “ashk”, “ol”, “oshufta”, “lol”, “men havoyini”, “hilol”, “majnun” kabi so‘zlarga sharh beriladi.

7. Nihoyat, ushbu qo‘shiqning mashhur hofiz va xonandalar ijrosidagi magnit yozuvi (Berta Davidova, Gulzoda Xudoynazarova, O‘ktam Axmedov, Dilnura Qodirjonova) topib tayyorlab qo‘yildi.

Mana shunday tayyorgarlikdan so‘ng belgilangan kuni 6-sinfda ko‘rsatib o‘tilgan rejaga binoan ishlab chiqilgan ssenariy asosida dars o‘tkazildi.

Dars juda ham qizg‘in, o‘quvchilar mutlaqo kutmagan, o‘ziga xos noan‘anaviy tarzda o‘tdiki, bu ularning chehralaridan, bir-birlariga o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlari va ko‘plab savollar bilan murojaat qilishlarida ko‘rindi.

Dars soʻngida oʻquvchilardan dars haqida fikrlari soʻralganda ular yakdillik bilan yaxshi taassurot olganliklarini taʼkidlashdi.

Mazkur yoʻnalishdagi pedagogik tajribalar musiqa darlarini fanlar aloqadorligida tashkil etishda quyidagi talab va mezonlar asosida ish tutish maqsadga muvofiq boʻlishi toʻgʻrisida xulosalar chiqarishimizga sabab boʻldi:

1. Darsni fanlar aloqadorligida tashkil etishda eng avvalo dars mavzusidan kelib chiqish;
2. Mavjud shart-sharoit va imkoniyatlarni hisobga olish;
3. Oʻquvchilarning qiziqishlari, oʻzlashtirish darajalari, boshqa fanlarga oid bilimlardan xabardorligini (sinflarda oʻqitiladigan fanlar boʻyicha) eʼtiborda tutish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I. Karimov. “Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch”. Toshkent, 2009 yil.
2. Umumiy oʻrta taʼlimning Musiqa fani Davlat taʼlim standarti va oʻquv dasturi. Toshkent, Taʼlim taraqqiyoti, Axborotnoma. 6-7-maxsus sonlari, 1997 yil
3. B. Abdurahmonova. Muhammad Yusufning “Vatanim” sheʼrini oʻrgatishda tarixi materiallarning oʻrni.-T.: Taʼlim va texnologiya. Ilmiy-uslubiy maqolalar toʻplami. 250-253-betlar.
4. Qudratov I. Oʻquvchilarni xalq qoʻshiqlari vositasida estetik tarbiyalash.- Toshkent: Fan, 2009 y.